




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba‘zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA “OQ” VA “QORA” RANGLARNING DUALISTIK SEMANTIKASI

DUALISTIC SEMANTICS OF THE COLORS “WHITE” AND “BLACK” IN UZBEKISTAN FOLK TALES

Malika TO'RAQULOVA,

Andijon davlat universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IIUP2299

Annotation. *This article analyzes the artistic and semantic functions of the colors «white» and «black» in Uzbek folk tales. The research demonstrates that these colors serve as more than just visual descriptors; they act as essential components of character portraiture that reveal the protagonists' inner worlds and moral qualities. Specifically, the study explores the role of the color white as a symbol of wisdom, purity, and benevolence, contrasted with the color black as a representation of evil, danger, and malice in shaping character imagery. Through the analysis of folk examples, the article concludes with insights into the dualistic significance of these colors within the poetics of the fairy tale genre.*

Key words: *Uzbek folk tales, color semantics, white and black, portraiture, artistic imagery, linguoculturology, character archetypes.*

Kirish. Xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, ertaklar millatning qadimiy dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bebaho xazinadir. Ertak matnlarida ranglar shunchaki predmetning belgisini bildirmasdan, balki chuqur ramziy ma'no va lingvokulturologik yukka ega bo'ladi. Xalqimizning olamni anglash tamoyillari, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalari ko'p hollarda ranglar simvolikasi orqali vizuallashadi. O'zbek folklorshunosligining yetuk vakillari G'.Jahongirov, O.Safarov, T.G'oziboyev, M.Murodov, Z.Husainova, K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, M.Afzalov, G'.Jalolov va boshqalarning ishlari xizmatlari kattadir. Ertaklar har bir folklorshunos nazaridan chetda qolmagan. Xususan, ertaklarning janr xususiyatlari, tasnifi va poetikasi kabi masalalar ushbu olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, O'zbek xalq ertaklarini o'rganishda rus olimlari N.P. Osrtoymov va A. N. Samolyovichlarning ham o'rni beqiyos. O'zbek folklorining ikkinchi epik turi-ertaklar haqidagi birinchi yirik tadqiqot M. Afzalovning «O'zbek xalq ertaklari haqida» kitobidir (1964) [Jahongirov 1972].

O'zbek xalq ertaklarida ranglar tizimi ichida «oq» va «qora» ranglari markaziy o'rinni egallaydi. Bu ranglar o'rtasidagi ziddiyat (antiteza) ertak syujetining rivojlanishini, qahramonlar o'rtasidagi konfliktni va asar g'oyasini tushunishda kalit vazifasini o'taydi. Qahramonlar portretini chizishda ranglardan foydalanish tinglovchida personaj haqida dastlabki emotsional taassurotni uyg'otadi: oq rang ishonch va samimiylilikni, qora rang esa xavf va shubhani ifodalaydi. O'zbek xalq ertaklari poetikasida qahramon portretini yaratishda ranglari o'ziga xos determinant (belgilovchi) vazifasini bajaradi. Ranglar qahramonning nafaqat tashqi qiyofasini, balki uning ichki olamini, ijobiy yoki salbiy xarakterini ochib beruvchi badiiy vositadir. Xususan, “oq” va “qora” ranglarining kontrast (ziddiyat) asosida qo'llanishi o'zbek xalq og'zaki ijodining dualistik tabiatidan dalolat beradi. Sehrli ertaklarda oq rang, odatda, ilohiy madadkorlar va ezgu niyatli obrazlar portretida aks etadi. Masalan, ko'plab ertaklarda masalan, “Uchar gilam” [O'zbek xalq ertaklari. 1-jild 2013;315] ertagida uchraydigan “oq soqolli chol” obrazi bunga yaqqol misoldir. Bu yerda “oq” so'zi shunchaki keksalik belgisini emas, balki qahramonning pokligi, donishmandligi va nuri ilohiyligini anglatadi. Qahramonning soch-soqoli va kiyimidagi oqlik uning “to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi” ekanligini vizuallashtiradi.



O‘zbek xalq sehrli-maishiy ertaklarida ayol go‘zalligi ko‘pincha kosmik jismlar va tabiat ranglari bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Xususan, “Orzijon va Qambarjon” [O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild 2013; 164] ertagidagi Oysuluv obrazi bunga yaqqol misoldir. Qahramonning “...oppoq qiz, jonon qiz...” deb tariflanishi shunchaki uning tashqi qiyofasini ifodalab qolmay, balki uning ijtimoiy va estetik maqomini ham belgilaydi. O‘zbek folklorida “oppoq” epiteti go‘zallikning eng yuqori darajasi, poklik va aslzodalik belgisi hisoblangan. ertagida Oysuluvxon ismidagi “Oy” komponenti nur va yorug‘lik simbolikasi bilan bog‘liq bo‘lsa, unga berilgan “oppoq” tarifi bu nurning moddiylashgan (vizuallashtirilgan) shaklidir. Bu kabi rangli tasvirlar tinglovchida ijobiy qahramonning ichki olami ham tashqi qiyofasi kabi tiniq va beg‘ubor ekanligi haqida tasavvur uyg‘otadi.

Ranglar tizimi qahramonning nafaqat ashqi qiyofasini, balki uning intellektual va ma‘naviy darajasini ham ifodalaydi. “Uch og‘a-ini botirlar” [O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild 2013; 112] ertagida botirlarga berilgan: “...uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday...” degan ta‘rif buning yorqin isbotidir. Bu yerda frazeologik simbolizm: “Oq-u qorani tanish” iborasi orqali ranglar insonning savodxonligi, hayot tajribasi va yaxshi-yomonni farqlay olish qobiliyatini anglatuvchi metaforaga aylanadi. Bu o‘rinda “oq” va “qora” dunyoning qarama-qarshi qutblarini tushunish, bilimli bo‘lish belgisi sifatida keladi.

Ertaklarda ranglar simbolikasi ba‘zan personajlarning xohishidan tashqari, metafizik adolat vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Zumrad va Qimmat” ertagida kampirning Zumradga qizil, Qimmatga esa oq sandiqni berishi ranglarning an‘anaviy semantikasini kutilmagan tomondan ochib beradi.

Odatda ezgulik va poklik timsoli bo‘lgan oq rang bu o‘rinda “yolg‘on”, “o‘lim” va “halokat” ma‘nosini tashiydi. Kampir (ertakdagi sinovchi obraz) Qimmatning yomon xulqi uchun jazo sifatida unga aynan oq sandiqni (ichida ajdaho yashiringan “tuzoq”ni) taqdim etadi. Bu yerda oqlik – yovuzlikning niqoblangan shaklidir. Ushbu tasviriy usul orqali o‘zbek xalq ertaklarida ranglarning vazifasi vaziyatga qarab o‘zgarishi va ular axloqiy mezonlarni belgilashda muhim xizmat qilishi isbotlanadi.

O‘zbek xalq ertaklarida ranglar nafaqat qahramonning xarakterini, balki uning hayotiy yo‘li va sarguzashtlari mohiyatini ham aks ettiradi. “Qorasochxon” ertagi bu jihatdan g‘oyatda xarakterlidir. Qahramonning ismi va asosiy portret belgisi bo‘lgan “qora soch” bu o‘rinda ikki yoqlama ma‘no yukiga ega. Bir tomondan, “qora soch” sharqona go‘zallikning an‘anaviy tasviri bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u personajning “qora qismati” – qiyinchilik, sinov va sarguzashtlarga boy hayoti bilan semantik bog‘liqlik kasb etadi. Ertakda qahramonning boshidan kechirgan zahmatlari (ayriliq, ta‘qib, azoblar) uning nomi va tashqi qiyofasidagi qoralik bilan o‘ziga xos simbolik uyg‘unlikni tashkil etadi. Demak, ertak poetikasida qora rang har doim ham yovuzlik ramzi bo‘lavermaydi, balki u metafora sifatida mardlik va yengilmas qudratni ifodalashi ham mumkin. “Qilichqora” ertagidagi kenja botir obrazi va uning ismi bilan bog‘liq atribut (qora qilich) bunga yorqin dalildir. Ertakda qahramonning ismi va uning asosiy quroli bo‘lgan qilichning “qora” deb atalishi tasodifiy emas. Xalq terminologiyasida “qora po‘lat” yoki “qora qilich” eng sifatli, o‘tkir va sinmas qurolni anglatgan. Shu sababli, qahramon portretida va uning qurolida aks etgan bu rang botirning jasurligi, qo‘rqmasligi va mardligini vizuallashtiruvchi vositadir. Aynan mana shu “qora qilich” yovuzlik timsoli bo‘lgan ajdarni mahv etishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu esa ertak poetikasida ranglar simbolikasining funksional kengligini ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari bir xil rangning ikki xil qutbdagi obrazlar portretida turlicha talqin qilinishini “Tohir va Zuhra” [O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild 2013; 334] ertagi misolida yaqqol kuzatish mumkin. Ushbu asarda qora rang ham go‘zallik, ham yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, Zuhra portretida “...qop-qora soch, jingalak-jingalak va qop-qora qoshlar...” tasviri keltiriladi. Bu yerda qora rang sharqona husnning oliy ifodasi, sadoqat va nafosat ramzi sifatida ijobiy estetik vazifani bajaradi. Ikkinchi tomondan esa, ertakda Qorabotir ismli salbiy qahramon gavdalanadi. Uning ismidagi “qora” komponenti qahramonning nafsiga, hasadgo‘yligiga va yovuz niyatlariga ishoradir. Ranglar simbolikasining eng cho‘qqisi va adolatli



yakuni personajlarning o‘limidan keyingi holatda namoyon bo‘ladi. Muhabbat qurbonlari bo‘lgan Tohir va Zuhra qabrlari o‘rtasiga joylashgan Qorabotirning qabridan “qora tikan” o‘tib chiqadi. Bu tikan – Qorabotirning tirikligidagi qora niyatlarining moddiylashgan shaklidir. Demak, ertak poetikasida rang personajning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning o‘limidan keyingi abadiy mohiyatini ham belgilab beruvchi simbolik belgidir.

Rang simbolikasi faqatgina personajlar portreti bilan cheklanib qolmay, asardagi umumiy psixologik muhit va ijtimoiy vaziyatni ifodalashda ham muhim estetik xizmat qiladi. “Gulshoh bilan Varqa” [O‘zbek xalq ertaklari.1-jild 2013; 153] ertagidagi motam tasviri bunga yorqin misoldir. Ertakda keltirilgan “...hamma qora kiyinibdi, taxt-ravoqlar qora bo‘yalibdi, qora bayroq tutilibdi...” kabi tasvirlar orqali rangning lokal-psixologik funksiyasi namoyon bo‘ladi. Bu yerda qora rang individual qahramon portretidan chiqib, butun bir mamlakatning qayg‘usi, fojiasi va motamini vizuallashtiruvchi vositaga aylanadi.

Tadqiqotimiz uchun bu misolning ahamiyati shundaki, u qora rangning mifopoetik qatlamini ochib beradi: qora – nafaqat yovuzlik yoki go‘zallik, balki inson ruhiyatidagi eng og‘ir nuqta – ayriqlik va o‘lim bilan bog‘liq motam rangidir. Bunday ommaviy “qoraga bo‘yalish” holati tinglovchida voqealar rivojining fojiaiy ekanligini his qildirishga xizmat qiladi.

Sehrli ertaklarda qora rang nafaqat insonlar dunyosiga, balki g‘ayritabiiy, mifologik qahramonlar olamiga ham tegishlidir. “Hotam” ertagidagi Qora dev obrazi buni yaqqol tasdiqlaydi. Mifologik portretda “qora” rangi qahramonning vahshiyliги, ulkan jismoniy kuchi va yovuz energetikasini vizuallashtirishga xizmat qiladi. Devning “qora” deb atalishi uning yer osti yoki zulmat olami bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ijobiy qahramon Hotamning ushbu Qora dev bilan to‘qnashuvi – yorug‘lik va zulmat, insoniy aql va vahshiy kuch o‘rtasidagi kurashning ramziy ifodasidir. Tadqiqotimizda ushbu obrazning keltirilishi qora rangning ertak poetikasidagi qarshi turuvchi kuch yaratishdagi barqaror funksiyasini isbotlashga yordam beradi.

Xulosa. O‘zbek xalq ertaklarida ranglar tizimi shunchaki vizual tasvir emas, balki chuqur axloqiy-falsafiy kontseptdir. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi: ranglar insonning ongi va tajribasini belgilovchi mezon hisoblanadi («oqu qorani tanish»), oq va qora ranglari doimiy ravishda ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat o‘rtasidagi kurashni vizuallashtiradi (Oq va Qora podshohlar, Qora dev), kontekstga qarab ranglar o‘zining an‘anaviy ma‘nosini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, oq rang ba‘zan poklik emas, balki jazo (oq sandiq) ma‘nosida kelsa, qora rang go‘zallik (Zuhra) yoki mardlik (Qilichqora) timsoli bo‘lib keladi. Ismlardagi rang komponentlari (Qorabotir) va personaj o‘limidan keyingi rangli metamorfozalar (qora tikan) xalqning adolat mezonlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, ertak poetikasida ranglar – qahramonning ichki mohiyatini ochib beruvchi va tinglovchida unga nisbatan emotsional munosabat uyg‘otuvchi asosiy badiiy koddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek xalq ertaklari. 1-jild. – T.: Sharq, 1995. – 246 b.
2. O‘zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. – T.: O‘qituvchi, 2013. 384 b.
3. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1964. – 516 b.
4. Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. – T.: Fan, 1964.
5. Jahongirov G‘. Bolalar ertaklari. – T.: Fan, 1972.
6. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. – B. 62-69
7. Imomov K. va b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: 1990.